

"El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiya
tanlovida ishtirok etuvchilar yosh tofasi:

bakalavriat bo'yicha
25 yoshgacha

magistratura
20-45 yoshgacha

doktorantura
22-45 yoshgacha

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

27 (16480)
2022-yil, 7-may
shanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Mahalladagi yoshlar yetakchisi
3-bet

Ishsizlarga ish,
muhtojlarga ko'mak

Kun mavzusi
4-bet

100 000 dollarlik
tanlov

Talabalar hayotidan
6-bet

Yo'qlama nega
kerak?



Foto: O'ZA

QAHRAMONLAR XONADONIDA

9-MAY – XOTIRA VA QADRISHASH KUNI

bat afsil
2-betda

QAHRAMONLAR XONADONIDA



**Yurtimiz tinchligi va ravnaciyo
yolida xizmat qilgan keksalarga
aholida hurmat-e'tibor ko'rsatish,
ajodalor xotirasini yod etib, ezu
ishlarini davom ettirish xalqimizga
xos azaliy qadriyatga aylangan.
Ayniqsa, mehr-oqibat, muruv-
vat, himmat ko'rsatish an'analar
Xotira va qadriash kunda yanada
yorqin namoyon bo'ladi.**

Mana shu qadriyatlarni munosab
davom ettirish, keksalarni ardoqlash,
ko'makka muhtojlarning hummatini
joyiga qo'yish, o'tganlarni xotirlash,
aziz otaxon-u onaxonlarning duosini
olmoqqlik maqsadida **Yoshlar ishlari
agentligi** hamda **Yoshlar ittifoqi**
tomonidan "Sharaf lentsasi" aksiyasi, uch
avlod uchrashuvlari, "Inson aziz – xoti-
ra muqaddas" shiori ostida madaniy
tadbirlar, davra suhbatlari, ochiq mu-
loqot hamda ko'rgazmalar, ijodiy ke-
chalar, "Vatanparvarlar" harbiy-sport
musobaqasi, "Obodlik ko'ngildan
boshlandadi!" shiori ostida obodon-
lashtirish tadbirlari, onlayn viktorni-
nalar, II Juhon urushi qatnashchilar, Vatan
himoyasida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar
olish; ixtisoslashtirilgan maxsus talim
muassasalari, "Mehribonlik", "Saxovat"
uylari, "Olivaviy bolalar uylari" va Bolalar
shaharchalarida tahsil oluvchi yosh-
lar orasida xayriya tadbirlari, xeshteg
aksiyalari kabi bir qator targ'ibot tadb-
irlari o'tkazilmoqda.

SHARAF LENTASI – FAXR IFODASI

Do'ppimiz o'zbekligi-
mizning ifodasi bo'lganidek, "Sharaf lenta'miz
ham shu yurt, shu aziz Vatanning baxti-
yor fuqarolari ekan-
ligimizning yorqin bel-
gisidir. Mana shu faxr
tuyg'usi, tinch va osuda
hayotimizga shukrona-
lik, Vatanga, ona-yurt-
ga bo'lgan muhabbat
hislari uyg'otish maqsadida res-
publikamizning barcha hududlarida
9-may – Xotira va qadriash kuni
munosabati bilan "Sharaf lentsasi"
aksiyasi ko'taringki ruhda o'tkazib
kelinmoqda.

Aksiyalar doirasida hududlar-
ning aholi gavjum joylarida 12
ming dona "Sharaf lentsasi" yurt-
doshlarimiz va xorijlik mehmonlar-
ga taqdim etildi. Jumladan, Buxoro
viloyatida joylashgan "Labi hovuz"
ansambl maydonida, Farg'on'a
viloyati Ahmad al-Farg'oni nomi-
dagagi istirohat bog'iда, Shahrishabz
shahridagi Oqsaroy majmuasida,
Navoiy shahri markazida joy-
lashgan "Yangi hayot" gipermarketi
hovlisida va bir qator viloyat
markazlarida tashkil etildi. Aksi-
ya doirasida ko'ngilli (volontyor)
yoshlar va sardorlar faol ishtiroy
etishdi.



OBODLIK KO'NGILDAN BOSHLANAR

Xonadonimizni, hovlimizni, ko'-
chalarimizni, arig'-u tomorqalarimi-
zni saranjom tutish xalqimizga
xos odat, har birimizning kundalik
vazifamiz. Biroq uni keng ko'lama
bajarish ezu amallar bardavomli-
gini ta'minlaydi. Shu maqsadda
26-apreldan 10-maygacha o'tkaz-
lishi rejalashtirilgan obodonlashtirish
tadbirlari jadal davom etmoqda.

Jizzax viloyati Zarbdor tumani-
da "Obodlik ko'ngildan boshlanar"
shiori ostida umumxalq xayriya
hashari mahalla hududida joy-
lashgan "Toshkesgan ota" ziyo-
ratgohida o'tkazildi. Forish tumani
sardorlari esa Xotira xiyobonida
obodonlashtirish ishlarni olib bordi.
Obodonlashtirish tadbirlarida Bux-
oro, Samarkand, Navoiy, Sirdaryo
viloyatları, tumانlардаги Yoshlar
ittifoqi sardorlari, yoshlar yetakchilari
hamda mahallalardagi yoshlar
faol ishtiroy etishdi.

Prezident farmoniga muvofiq O'zbekis-
tonda **236 nafar** ikkinchi jahon urushi
qatnashchilarining har biriga
15 000 000 so'm miqdorida bir marta-
lik pul mukofoti, "Mustaqillik monumen-
ti"ning statuetkasi, O'zbekiston Respub-
likasi Prezidentining tabrigi, shuningdek,
vazirlik va idoralar, hokimliklar tomonidan
ta'sis etilgan sovg'alar topshirilmoqda.

QAHRAMONLAR XONADONIDA

"Falsafaning bosh muammo-
si nima?" degan savol qariyb
bashariyat yaratiganidan buyon
kishilar bahs-u munozarasiga sa-
bab bo'lib kelayotgan hech kimga
sir emas. Bu munozarani qanday
davom ettirish, bugun unga qay-
tarza yechim topish – ilmning ishi.

Biroq sharqona, sod-
da, eng muhimi, xalqo-
na falsafa shuki, inson
ong-tafakkuri uchun
asosiy muammo bor-
liqning abadiyligi-yu ki-
shi umirining o'tkinchiligi
o'rtasidagi qarama-qar-
shilikda mujassam. Xotira – odamlarning vafotidan
keyin ham bu dunyoda
yashashi uchun imkon
beradigan birdan-bir
makon. Odamlar – ort-
da qolganlar xotirasida
yashashga intilish ilinji
kishini tarbiyalaydi. Uni
ezgulikka, kishilarning biror-bir ko-
riga yarab qolishga, ummi zoye
ketkazmaslikka undaydi. Shunday
kishilar tirikligida ham qadr topadi.
Xalq hech qachon yaxshi farzand-
larini esdan chiqarmaydi. Xalqning
xotirasiz yashashi aslo mumkin
emas.

Urushlarda qurban bo'lgan
millionlab yurdoshlarimiz xotirasiga
ta'zim qilish, bugun saflarimizda
yurgan, osmonimiz musaffoli-
gi, yurtimiz ravnaciyo yolida xizmat
qilgan nuroniyalarga yuksak hur-
mat-ehtirom ko'rsatish esa bizning
eng oly burchimizdir.

9-may munosabati bilan ik-
kinchi jahon urushi qatnashchisi
Vera Nosirova xonadonida bo'lindi.
1925-yilda tug'ilgan Vera Nosirova
ayni damda 96 yoshda. Hozir-
da Qarshi shahridagi "Qarliqsona"
mahallasida yashab kelayotgan
onaxon 1 nafar farzand, 3 nafar
nabira hamda 20 dan ortiq che-
varalar ardog'iда.


Bundan tashqari, Andijon
viloyatidagi harbiy qismalarning biri-
da shartnomha bo'yicha xizmat qilib,
o'z xizmat vazifalarini a'lo darajada
bajarayotgan vaqtida halok bo'lgan
Navro'z Aliqulov xonadonida bo'llib,
esdalik sovg'alari topshirildi.

"Xotira bor ekan, millat bar-
hayot" shiori ostidagi aksiya yur-
timizning barcha tuman va sha-
harlarida davom etmoqda.

**9-may... Bu kunni eslang, chun-
ki abadiylik undan boshlanadi.**

ISHSIZLARGA ISH, MUHTOJLARGA KO'MAK

Faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo'lgan qahramonimiz surxon-daryolik Shahzod Xudoyberdiyev. U viloyatning Sho'rchi tumanidagi "Navro'z" mahallasi yoshlar yetakchisi.



Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan Shahzod 20 yoshida O'zbekistondagi eng yosh savdo-sanoat palatasi rahbari, 22 yoshida eng yosh mahalla fuqarolar yig'ini raisi, 23 yoshida Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat kengashi deputati bo'lgan. Yoshlar yetakchiliga o'tgunga qadar "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Sho'rchi tuman kengashi raisi sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, Shahzod Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi hamdir.

Mahalla fuqarolar yig'ini raisi bo'lib ishlaganida uning tashabbusi bilan homiyalar hisobidan mahallaning hozirgi binosi qurib bitkazilgan. "Kun kelib shu binoda yangi lavozimda faoliyat olib boraman, deb hech o'ylamagandim", - deydi qahramonimiz.

Shahzod o'ziga yuklatilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashishga odatlangan. "Kasalni davolagandan uning oldini olgan afzal" degan naqlini hayotiy shioriga aylantirgan qahramonimiz mahallada jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoshlarni e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildi.

Mahallada istiqomat qilayotgan ana shunday yoshlardan biri Umidjon Turdaliyev ota-onasidan yetim qolib, opasining qaramog'ida ulg'aydi. Hech bir ishning boshini tutishga qiziqmagan, maqsadsiz erta-yu kech ko'chada yuradigan Umid mahalla yoshlar yetakchisining e'tibordan chetda qolmadidi. Avvaliga u ko'cha sardori etib tayinlandi. Shu paytga qadar oilaviy sharoiti og'irligi bois

hech bir hujjatga ega bo'lмаган Umida fuqarolik pasporti olib berilib, muddatli harbiy xizmatiga yuborildi. Barcha xarajatlar mahalladagi yoshlar yetakchisining tavsiyasiga binoan subsidiya asosida qoplat berildi.

Yoshlar yetakchisi mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazishga ham alohida ahamiyat qaratmoqda. Shu bois mahallada muntazam sport musobaqalari va "Zakovat", "Mushoira", "Munoza" kabi intellektual o'yinlar tashkil etilib, g'olib jamoalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanib kelinmoqda.

- "Bir million dasturchi" va "1 nuroni 10 nafar yosh" shiori ostidagi loyihalarga yoshlarning qiziqishi katta, - deydi Shahzod Xudoyberdiyev. - Mahallada oylik reja asosida loyihalar muntazam tashkil etiladi. Oylik reyting natijalarini shakllantirgan holda faol yoshlarni taqdirlabar boram. Har haftada mahallada mavjud 13 ta ko'cha sardori bilan birgalida ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar holidan xabar olish yo'lda qo'yilgan.

Mahalla yetakchisi xorija ishslash uchun ketgan 34 nafar yosh taqdiriga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Vatanga qaytish istagini bildirgan 4 nafar yoshni ham ish bilan ta'minlash choralarini rejalashtirmoqda. Shu kunga qadar tikuvchilik qilish istagini bildirgan 2 nafar xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinasi, 2 nafar yigitga payvandlash uskunasi olib berildi. Shuningdek, 2 nafar yoshga yetakchi tavsiyasi asosida safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatni o'tashi uchun shartnoma to'lovi hamda 1 nafar talabaga to'lov shartnomasi pullarining yarmi qoplab berildi.

IFTIXOR

Toshkent Xalqaro aeroportida Gretsiyaning Rodos orolida o'tkazilgan tezkor shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon championati g'oliblari - Umida Omonova hamda Humoyun Bekmurovni tantanalni kutib olish marosimi bo'lib o'di. Marosimda Yoshlar ishlari agentligi, Sportni rivojlantirish vazirligi va O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi rahbariyati hamda keng jamaatchilik vakillari ishtiroy etdi.

G'ALABA HISSI

- Men ham o'z yosh toifamda 2 yo'nalishda ishtiroy etdim. Rapid yo'nalishida 7 imkoniyatdan 7 tasida g'alaba qozondim. Blitz yo'nalishida esa 9 imkoniyatdan 8 tasida g'alabaga erishdim. Bu natijalar jahon championiga aylanishmag yeterli bo'ldi.

Musobaqa juda qiyin kechdi, tajribali va kuchli raqiblar jamlangan. Italiya, Polsha, Estonia, Avstraliya davlatidan kelgan ishtiroychilar bilan baho olib bordim.

Bizni kutib olish jarayonlari ham juda yaxshi tashkilashtirilgan. Yarim tun bo'lishiga qaramay. Yoshlar ishlari agentligi, faol yoshlar, jurnalistlar hamda mahalliy aholi kutib olish uchun chiqishdi.


Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbir

MAHALLA YETAKCHISI
XORIJA ISHLASH UCHUN
KETGAN 34 NAFAR YOSH
TAQDIRIGA HAM ALOHIDA
E'TIBOR QARATMOQDA.

Zafar BOZOROV,
talaba:

- Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining 3-bosqich talabasiman. Shartnoma asosida o'qilyman. Oilaviy sharoitini og'irligi, yolg'iz onam o'zi kontraktimni to'lashga qylaylib qolgan payti mahallamizga yoshlar yetakchisi mahalla yoshlarining

muammolarini hal qilib berayotganini eshitib, men ham murojaat qildim. Ular kontraktimning ma'lum qismini to'lab berishi mumkinligini aytdi. Oradan ko'p o'tmay kontraktimning yarmi to'lab berildi. Bizga shunchalik e'tibor berilayotganidan xur sandmiz.



Kamola
YAXSHIBOYEVA,
tikuvchi:

- Yoshlar yetakchisi xatlov davomida uyimziga kelganida unga tikuvchilik hunarim borilgini, biroq buning uchun tikuv mashinasi yo'qligini aytdi. Ko'vaqt o'tmay subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berishdi. Hozir qo'n-i-qo'shni tizimiz uchun ko'yaklar tikib, kuniga 50-60 ming so'm daromad topyapman. Oila a'zolarimiz ham bundan xursand. Mahalla yoshlar yetakchimizning menga bergan yordamiga javoban, mahalladagi bir nechta ishsiz, hunar o'rganish istagidagi yoshlarga tikuvchilik hunarini o'rgatmoqchiman.

Umida OMONOVA,
shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtaida jahon championi



Foto: Zohid MALIKOV

unicorns



100 000 DOLLARLIK TANLOV

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Yoshlar ishlari agentligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo kuzatuvchi va muloqot uchun hamkor mamlakatlari yoshlaringning eng yaxshi startap loyihasi tanlov – "Unicorns SCO" tashkil etilmoqda.

Tanloving asosiy maqsadi – mamlakatlari hamda yoshlari tashkilotlari o'tasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, startap tanlovlariga keng auditoriyani jalb qilish, startap loyihalari faoliyatida faollikni oshirish va yoshlarni qiziqitirish, dunyoning eng yaxshi startaperlari mahoratini namoyish etish, yoshlar o'tasida tajriba almashish, ShHTga a'zo mamlakatlari startap ekotizimini rivojlantirish.

ShHTga a'zo davlatlar Yoshlar kengashi doirasida o'tkaziladigan mazkur tanlov yoshlarning davlatlararo muloqotini mustahkamlash va faollashtirishga yordam beradi, tadbirdorlik qobiliyatining o'sishiga va shaxsning har tomonlhma rivojlanishiga ko'maklashadi.

Tanlovda tegishli yoshlari tashkilotlari rahbarlarining qarori bilan tashkilotga a'zo davlatlar, kuzatuvchilar va muloqot uchun hamkor mamlakatlardan 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlari ishtiroy etishi mumkin. Loyihanning mukofot jamg'armasi 100 000 AQSh dollarini tashkil qildi. Tanlov so'ngida 10 ta eng yaxshilar aniqlanadi va har bir g'olibga 10 000 AQSh dollaridan pul mukofoti topshiriladi.

"Unicorns SCO" tanlovida ishtiroy etish uchun IT-ishlanmalar, kitobxonlikni ommalashtirish, turizm, arxitektura va uy-joy kommunal xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati, tejamkor energiya, davlat xizmatlari va biznes jarayonlari avtomatlashtirish, moliyaviy xizmatlar, tibbiyot, transport va logistika xizmati, tadbirdorlik va xizmat ko'satish, ekologiya, sport, reklama, media kabi yo'nalishlarda innovatsion texnologiyalarni yaratishga qaratilgan loyihalar taqdim etish lozim.

Tanlov 2022-yil aprel oyidan 2022-yil iyun oyiga gacha davom etadi. Arizalar tanloving birinchi bosqichida – 15 kun muddatda qabul qilinadi.



Lobar QODIROVA

MIYA FAOLIYATI VA XOTIRANI YAXSHILAYDI



"Besh tashabbus olimpiadasi" yoshlarning san'at va sport, kitobxonlik va kompyuter texnologiyalariga qiziqishlarini oshirish, qibiliyatlarini rag'batlantrishda davom etadi.

Hududlarda olimpiadaning barcha yo'naliishlari bo'yicha mahalla bosqichlari tugab, kuchli lar keyingi bosqichga o'tkazildi. Endi navbat – sektor bosqichiga! Voleybol, shashka va yengil atletika bo'yicha viloyatlarda 5-maydan 8-maygacha sektor bosqichlari bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

Shashka miya faoliyatini, xotirani yaxshilashga yordam beradi. Fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Voleybol bilan shug'ullanish esa yoshlarni jismonan sog'lom va baquvvat qildi. Buni **Andijon shahrida** shashka musobaqasining sektor bosqichida qatrashayotgan yoshlari ham aytishmoqda. Musobaqanigan 16-21 yosh, 22-26, 27-30 yosh toifalarida jami 60 nafar yoshlari ishtiroy etdi.

Voleybol musobaqalarida esa jami 162 nafar yoshlari ishtiroy etdi. Musobaqlarda mahalla jamoalarini viloyat bosqichiga chiqish uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Yakunda o'g'il bolalar o'tasida "Sanoat" mahallasi jamoasiga omad kulib bo'ldi. Qizlar o'tasidagi o'yinlarda esa "Qoratut" mahallasi jamoasi keyingi bosqichga yo'llanma oldi.

Bunday musobaqalar Farg'ona viloyatida ham davom etmoqda. Xususan, **Marg'ilon shahrida** shashka, voleybol va yengil atletika sport turlari bo'yicha musobaqalar erkaklar va ayollar o'tasida o'tkazildi. Musobaqlar qiziqarli uchrashuvlarga boy bo'ldi. Har bir jamoa g'oliblik uchun shijoat bilan harakat qildi. So'nggi xulosalarga ko'rva, "Yo'madoz", "Ho'ja-Porso", "Saxovat", "Uzunxovuz", "Sholdirama", "Vatan" mahallasi yoshlari g'olib bo'ldi.

177
IMKONIYAT
YOSHLAR UCHUN IMTIYOZLI MIKROKREDITLAR



Prezidentimizning 2020-yil 13-oktabrdagi "Aholini tadbirdorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirdorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirdorli to'g'risida" gi qaroriga ko'rva, nodavlat ta'lim tashkilotlari maxsus sertifikatini o'lgan tadbirdorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar mikrofirmava kichik korxona ta'sis etgan shaxslarga:

- o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha bo'lgan miqdordagi mikrokreditlar ta'minotisi ajratiladi;

- uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulkular garovi, Tadbirdorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta'minot turlari asosida 225 million so'mgacha miqdorda mikrokreditlar ajratiladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va mudatlar:

- imtiyozli toifalarga mansub shaxslar imtiyozdan foydalanish yuzasidan tegishli hududlarda faoliyat yurituvchi tijorat banklari ("Mikrokreditbank" ATB va AT "Xalq banki") tuman va shahar filiallariga muvojaat qilishlari mumkin;

- muvojaatga talabgor nodavlat ta'lim tashkilotlari maxsus sertifikati yoki mikrofirma va kichik korxona ta'sis hujjatlarini ilova qilishi lozim;

- imtiyozni qo'llash bo'yicha muvojaatlar O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning muvojaatlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.



BOZOR IQTISODIYOTI TARIXI

VA UNING KAPITALIZMDAN FARQI

Qulog'imizga "bozor iqtisodiyoti" ataması tez-tez chaliladi. Ammo ko'pchilik bu tushuncha o'zi nima ekani va uning tarixi haqida yetarli bilimga ega emas. "Moliya kundaligi" ruknizmiz orqali quyida shu xususida suhbatlashamiz.

Erkin bozor tizimi deganda odamlar ixtiyoriy ravishda bir-biri bilan savdo qiladigan, mahsulot va xizmatlarga talab hamda taklif tartibini yaratadigan iqtisodiyot tushuniladi. Bunda davlat aralashuvi va tartibga solishi juda kam yoki umuman bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, sof erkin bozorda jismoniy shaxslar va kompaniyalar iqtisodiy jihatdan o'zları xoqligancha harakat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti odamlar bir-biri bilan savdo qila boshlaganidan beri turli shakkarda mavjud bo'lib kelgan. Erkin bozorlar ijtimoiy muvoqiflashtirishning tabiiy jarayoni sifatida paydo bo'lgan. Ya'n ixtiyoriy ayriboshplash yoki xususiy mulk huquqini hech kim ixtiro qilmagan, hech bir hukumat buni konsepsiya qilib ishlab chiqmag'an yoki puldan ayriboshplash vositasi sifatida foydalanishni birinchi amalga oshirmagan.

ERKIN BOZOR QACHON PAYDO BO'LGAN?

Bundan ko'p asrlar ilgari odamlar pulsiz ham bir-biri bilan savdo qilgan. Savdo dastlab norasmiy edi, ammo iqtisodiy ishtirokchilar oxir-oqibat valyuta ayriboshplash vositasi ushbu foydali operatsiyalarni osonlashtirishga yordam berishini tushunishdi.

Eng qadimgi ayriboshplash qishloq xo'jaligida ro'y bergan. Masalan, ayrim tahlilchilar don va qoramoldagi ayriboshplash miloddan avvalgi 9000-6000 yillarda vujudga kelganini taxmin qildi. Bu miloddan avvalgi 1000 yillarga amalda bo'lgan. Keyin Xitoy va Mesopotamiyada metall tangalar zarb qilindi va bu pul vazifasini bajaradigan tovarning birinchi ma'lum namunasi hisoblanadi.

IKKI USTUN

Bozor iqtisodiyotining ikki ustuni bor: ixtiyoriy ayriboshplash va xususiy mulk. Savdo bularsiz sodir bo'lishi mumkin, ammo bu bozor iqtisodiyoti bo'lmaydi. Ya'n faqat bittasi bilan amalga oshirilsa, markazlashtirilgan tarzda bo'ladi.



Xususiy mulk tushunchasi tarixiy manbalar yozilishidan anchə o'din mavjud bolgan, lekin bunga oid muhim daillar XVII-XVIII asrlar, aniqrog'i. Jon Lokkdan keyin paydo bo'ldi.

Jon Lokk – ingлиз pedagogi va faylasufi, empirizmi va liberalizm vakili. Uning g'oyalari gnoseologiya va siyosiy falsafanining rivojlanishiaga katta ta'sir ko'ssatdi. U ma'rifat-parvarlik davrining eng nufuzli mutafakkirlari va liberal nazariyotchilardan biri sifatida tan olingan.

ERKIN BOZORLAR KAPITALIZMDAN FARQLANADI

Erkin bozorlarni kapitalizmdan farqlash muhim. Kapitalizm – tovarlar qanday ishlab chiqarilishining iqtisodiy tizimi. Bu yerda biznes egalari va investorlar (kapitalistlar) kompaniya, korporatsiya yoki zavod kabi markazlashtirilgan tashkilotda ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Umuman, kapitalistlar barcha ishlab chiqarish vositalariga egaли qiladi. Ya'n ko'chmas mulk, xomashyo, tayyor mahsulotlar va foyda.

Shuningdek, kapitalistlar ishlash evaziga ishchilarni yollaydi. Ishchilar mehnat asbobları, xomashyo, tayyor mahsulot yoki foydaning hech biriga egalik qilmaydi – ular faqat ishlash haqini xizmat qiladi.

Erkin bozor esa iqtisodiy taqsimot tizimidir. U iqtisodiyotda kim nima va qancha olishini talab va taklif qonunlari orqali belgilaydi.

“
BOZOR IQTISODIYOTINING
IKKI USTUNI BOR: IXTIYORIY
AYIRBOSHPLASH VA
XUSUSIY MULK.

Nurillo TO'XTASINOV,
Bank-moliya akademiyasi
MBA magistranti

**ERKIN BOZORNI HECH
KIM IXTIRO QILMAGAN,
U SAVDO VA SAVDO
UCHUN IJTIMOIY INSTITUT
SIFATIDA ORGANIK
RAVISHDA PAYDO BO'LDI.**

Tarixda markaziy hokimiyat va davlat aralashuvi bozor iqtisodiyotining asosiy raqibi bo'lib kelgan. Zamonaviy tilda bu ko'pincha sotsializmga qarshi kapitalizm sifatida taqqid etiladi. Bu so'zlarining umumiyligi talqini va ularning haqiqiy ma'nolari o'tasida texnik farqlarni ajratish mumkin bo'lsa-da, ular azalii mojaroning zamonaviy ko'rinishlarini ifodalaydi, ya'n davlat nazoratiga qarshi ixtiyoriy bozorlar.

Erkin savdo tarafodorlari hukumat aralashuvi va tartibga solishdan norozi bo'lishsa-da, xususiy mulk huquqlari, cheklangan javobgarlik va bankrotlik to'g'risidagi qonunlar kabi ba'zi huquqiy asoslar global erkin bozorlarni rag'batlantirishga yordam berdi.

Deyarli barcha zamonaviy iqtisodchilar bozor iqtisodiyoti hukumat araluviga qaraganida samaraliroq ishlaydi, degan fikrga q'shiladi. Shunga qaramay, iqtisodiy ishlarda erkinlik va hukumat nazorati o'tasida to'g'ri muvozanat haqida hali ham jiddiy munozaralar davom etmoqda.

BILASIZMI



KREDITLAR QANDAY TARTIBDA AJRATILADI?

Prezidentimizning 2021-yil 20-dekabrdagi "Oilaviy tadbirdorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbayini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvoqiq, imtiyozi kreditlar 14 foiz stavkada oilaviy tadbirdorlik, daromad topishiga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirdorlik subyektlariga 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozi davr bilan 3 yilgacha muddatga yagena elektron platforma (www.oilakredituz) orqali belgilangan tartibda ajratiladi. Jumladan, kreditlar har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisining tavsiyalari asosida:

- tadbirdorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslarga 33 mln. so'ngacha bo'lgan miqdorda garov ta'minotisz;
- belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirdorlik subyektlariga 225 million so'ngacha bo'lgan miqdorda (uchinchchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, Jamg'armaning kafilligi va qonun hujjatlari doirasidagi boshqa ta'minot turlari asosida) beriladi.



Qani-hiy, bugun qaysi darslar bor. Iya, fanlarning "dodalari" bor ekan-ku. Ha mayli. Ustozlar bilan bir otamlashar ekanmizda. Ana, o'zlar keldi.

- Hurma-a-a-t...
- Assalom-u-u a-a-alaykum...
- Hozir ustozga "paxta qo'yishning" ayni vaqt, ulgurib qol, Boychechak - Ustoz bugungi mavzumiz nima? Doskaga yozib qo'yaman (aniqrog'i, nimani g'iybat qilamiz??).

Bugun mavzumiz... bugu-u-u-n... Kelingilar, mavzuga o'tishdan oldin o'zbek to'ylari haqida qisqa cha gaplashsak. To'ylarda isrof-garchilik judayam ko'payib ketgan. Dasturxonga yuz xil noz-u ne'matdan qo'ygandan ko'ra, shuni yetim-yesirlarga sadaqa qilsak bo'ladi-ku, to'g'rimi, talabalar?

Ob-bo-o-o, boshlandi. Bugun ham mavzuni o'tmas ekamiz-d...

- Masalan, men yaqinda kichik qizimning to'yini qildim. Ortiqcha chiqim bo'lmasin deb qudam bilan to'yan dan oldin kelishili oldim. Sarposiga 2 dona ko'ylik va u bilan taqishga taqinchoq oldik, xolos. Kerak narsani to'yan keyin ham olsa bo'ladi-ku, to'g'rimi, talabalar???

To'g'ri-i-i, to'g'ri. Siz aytasiz-u-noto'g'ri bo'ladi? Xato desak, naqd imtihonidan yiqitasiz-ku!

- Ikki yosh yig'ilgan pullarni boshqa kerakli narsalarga ishlatali mumkin. Masalan, qizim va kuyovim Anta-a-a-aliyaga bordi. Mazza qilib dam olib keldi. Rasmlari ham bor, ko'rsataymi, talabalar?

Mayli, ko'raylik. Ko'rmaganimiz ga qo'yamsiz-ku!

- Sizlar ham lejajakda oila qu-rasizlar. O'nak bo'sin deyman-da. Voi, dars tugashiga ham 10 daqiqa qolibdi. Mavzuni telegram guruhi-ningga tashlab qo'yaman, kelasi dars seminarga tayyorlanib kelinglar. Men ketdim, 10 daqiqa oldin chiqishingiz mumkin. Menday mehribon ustoz yo'q, to'g'rimi, talabalar???

Ha-a-a, bo'lmasa-chi?! Sizga gap yo'q. Yaxshi boring. Qaytib kelmasangiz ham mayli. Hozir sizga o'xshagan bittasi keladi.

- Turilsi-i-i-n...
- Assalom-u-u a-a-alaykum...

- Vaalaykum assalom, talabalarim. Kayfiyatlar qalay? Kuningiz yaxshi o'tyaptimi? Iltimos, mening darsimiga universitetda o'qiydig'an odamday kelinglar. Soqollarni olib, kiyimlarni dazmollab, paypoqning yaxshini kiyib, atirlarni sepib, xo'pmi?

Xo'p bo'ladi-ye, ustozjon. Yomon toza odamsiz-d...

- Parmonjon, sen nega kepkay kiyib olgansan, yech, bolam.

- Ustoz, kecha ishdan kech qaytgandim. To'grisini aytasam yuvinishga ulgurmadi. Yechmay...

- Yo'q, yechasan. Menga gap qaytarma. Kepkada o'tirsang, darsimiga xalal berasan. Yechasan yoki men bilan dekanatga borasan. Tush oldimga...

Eh, mana 2-para ham o'tdi hisob. Endi ular dars tugamaguncha qaytib kelmaydi. Yana bitta dars. O'zimga sabr tilayman.

- Vaalaykum assalom.

- Assalom-u-u a-a-alaykum, ustoz. Uzr, ko'rmay qolibmiz.

- Menga kelganda hech kim hech narsani ko'rmay qoladi o'zi. Ovaqlaring chiqmasin.

Jimlik... 5 daqiqa o'tdi, jimlik...

- Ustoz, bugungi mavzu nima?

- 5 minut jum o'tirasnlarmi, yo'qmi? Kayfiyatim yo'q. Boshim og'riyapti. Indamay o'z ishlaringni qilib tiringlar.

Boychechak, hozir ayni vaqt. Olg'a:

- T-sh-sh, ustozimning kayfiyat yo'q. Ustoz, tinchlikmi? Nega kayfiyatizingiz yo'q? ko'riningiz ham yaxshi emas, bugun dars o'tmay qo'yavering. O'zimiz o'qib olamiz. Ketaveraylik.

- Mayli, boringlar, "moodle" ga ma'ruzani joylab qo'yaman. Yo'lda birov to'xtatsa, boshqa kursda o'qiyman deb yuboringlar.

And-a-a, hash-pash deguncha darsni ham tugatib oldik. Hech narsa o'rganmaganimizi hisobga olmasa, yaxshi kun bo'ldi. Ustozlarni ham tushunish kerak, ular ham odam. Dardini kimgadir aytgisi keladi, kayfiyati har xil bo'ladi.

Ertaga nima darslar bor edi? Ni-malarni gaplashamiz ekan? Dasto'molimni olvolaman, juda dardli "mavzu" bo'lsa, yig'lashimga to'g'ri kelib qolar...

Ziyoda
RAHIMBOYEVA

YO'QLAMA NEGA KERAK?

Dars boshlanib, talabalar ustozni "jon qu-log'i" bilan tinglayotgan bir vaqtida eshik qiya ochiladi-yu, fikrlar, e'tibor va diqqat qoq o'rta-sidan bo'linib, yo'qlamachi qizga o'girilamiz. Ko'pchilikning yuzida norozilik, kimgadir umuman farqi yo'q. Qanday ham farqi bo'lsin, axir, maktab davridano bunga ko'nikib qolganmiz.

Maktablarni-ku qo'ya turaylik, ammo oliy ta'lim muassasalarida yo'qlamaning nima keragi bor? Talaba bir necha yil davomida repetitor va o'zining mashaqqatlari mehnati sabab talabalari maqomiga erishgan, shunday ekan, dargohga sababsiz kelmasligi, darslarda ishtirok etmasligi mumkinmi? Talabalar maskanga kelyaptimi, yo'qmi deb yo'qlama qilishda mantiq bormi? Agar siz "bor" deb javob bersangiz – haqsiz, "yo'q" deb javob bersangiz ham.

Bakalavr bosqichida tahsil oluvchi talabalarining aksariyat qismini 18-23 yoshdagagi yigit-qizlar tashkil etadi. Bilasizki, bu yoshda ilm olish bilan birga, turli chalg'itvchi, foydasiz, hatto, zarar keltirishi mumkin bo'lgan narsalarga ham qiziqish bo'ladi. Birinchi qiziqishdan ikkinchisi ustun kelib qolmasligi uchun ham nazorat qilish va to'g'ri yo'nalish berib turish muhim. Ayniqsa, gap ularni turli yot g'oyalalar va buzg'unchi kuchlardan himoya qilish haqida ketsa!

Agar mutazam davomat qilishning keragi yo'q, talaba qaysi darsga kirish kerakligini o'zi hal qilsin deydiqan bo'lsangiz ham fikringizni xato deya olmaymiz. Masalan, bir necha yil avval O'zbekistonidagi ko'pchilik OTMlarning yangicha, xorijiy tajribaga asoslangan tizim – "kredit modul"-ga o'tkazilgani haqidagi xabarlar bilan birga, buning bir qator imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlar ham taqdim etilgan edi.

Misol uchun, talaba darslarda qatnashishga maqbul vaqtini va qaysi ustozdan ta'lim olishini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlay oladi. Fanlar masalasi ham shunday: o'z qiziqishi hamda o'zlashtira olish ko'rsatkichiga qarab, yil davomida qaysi fanni o'rganmoqchi ekanini aniqlab ololadi.


Bu tizimning asosi, shu bilan birga, talabalar uchun eng jozibali tomoni – talaba darslarda doimiy ishtirok etishga majburlanmaydi. Agar u qoldirilgan darsni mustaqil o'zlashtirib olishiga ko'zi yetsa, darsdan boshqa masgh'ulotlar bilan band bo'lishi, ish joyida, kutubxonada yoki shunchaki, do'stlari davrasida vaqt o'tkazishi mumkin. Muhibimi, u yakuniy va oraliq nazorat imtihonlarini a'lo bahoga topshira olishi kerak. Davomat masalasi, u to'plagan kreditlar soniga jiddiy ta'sir ko'satmaydi. Har holda Yevropada shunday tartib o'natilgan.

Ammo bizda... 2021-yil tashkil etilgan Yangi O'zbekiston universitetidan boshqa oliy o'quv yurtlarida oldingi tizimning ayrim tartib-qoidalari, shu bilan birga, davomat masalasi ham hozirsha ma'lum darajada saqlanib qolmoqda; va talabalaridagi norozilik kayfiyati ham.

Aynan shunday yo'qlamachi qizning aytishicha, ko'pchilik talabalarini shu savol qiynar va norozi bo'lishiha sabab bo'lar ekan: kontraktini to'lagandan keyin kelish yoki kelmaslik talabaning o'ziga havola etilishi kerak emasmi?

Xo'sh, siz qanday fikrdasiz?





DAHSHAT ICHIDA

Hikoya

„U musibat xonasi o'tasidagi stol ustidan boshini ko'targanida atrofidagi g'lati manzaraga ko'zi tushdi. Ko'zlarini pirpiratib, atrofidagi devor bo'ylab o'matilgan tokchalariga tikilib qaray boshladi. Ularning har birida alohida-alohida olov alangalanayotgandi.

Keyin bir ovoz keldi – ayolning faryodi! Mana bu burchakdan! Shu tomonda yonayotgan olovlarining birida xotinini kaltaklayotgan mast erkak tasviri gavdalandi. Taajjubga tushgan kimsha o'sha tomonga yaqin bordi. Keyin qarama-qarshi tomonidan bir go'dakning chinchirig'i eshitildi. Bu safar olov sirtida burchakka tiflib, devorga suyangancha yig'layotgan bola ko'ridi! Tormozning chiyllashi! Mast holda rulda o'tigan erkakning yuzi qonga belangandı! Tokchalar-dagi har bir olovda birda-niga qandaydir suratlar paydo bo'lgan edi.

Ichkilikbozlar davrasidagi zaharxandalari, qadahlarning bir-biriga urilgani... Ko'ziga ko'rinyotgan bu galati holat uni tamoman karaxt holatga solib qo'ygandi. Muzlab ket-gan tanasi negadir qiziy boshladi – shimming balogi yonib boshlagan ekani! Jon holatlida tashqa-riqa otilmoqchi bo'ldi-yu, amma shu payt temir eshik zanjirband qilingandek o'z-o'zidan taraqlab yopildi. Har-chand urinib eshikni ocholmagach, ortga tisarildi va yonayotgan oyog'ini changallab, yerga gursillab yiqildi. Shu dam tokchalardagi olovlar pastga oqib, har tarafdan u tomon kela boshladi – kimsha dahshat ichida qolganini his qildi shunda! Ana shu payt allaqayerdan do'rillagan ovoz ham yangarit – shu yerda abadiy mahkumsan, ey gunohkor banda!

“

KEYIN BIR OVOZ KELDI –
AYOLNING FARYODI! MANA BU
BURCHAKDANI SHU TOMONDA
YONAYOTGAN OLOVLARNING
BIRIDA XOTININI
KALTAKLAYOTGAN MAST
ERKAK TASVIRI
GAVDALANDI.

– Xo'p...
Shu yerda "abadiy" qolish taklifi yigitning vujudidagi va-himani bat-tar kuchaytirib yubordi. Xuddi tushida ko'rgan-lari takrorlanayot-gan edi go'yo! U telefonini cho'ntagiga solarkan, atrofa sekgingi-

na qarab, boyagina ko'z o'ngida gavdalangan tasvirlami xayoliga keltirdi. Qulog'iqa ham allanima tovushlar eshitilgandek bo'ldi. Shu onda temir eshik yopilib qolishidan qo'rqqan aroqfurush yugurib o'sha tomonga bordi va chiroqni o'chirish ham esidan chiqib, do'konni qa-tiroq bosgan qo'llari bilan qufladi hamda aniq bir manzila borishni bilolmoy nari ketdi.

Ozod MUSTAFOYEV,

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Navoiy viloyati bo'limi xodimi

ISHONCH TELEFONI ISHGA TUSHDI

Mamlakatimiz fuqarolarini va yurtimiz mehmonlarini biror bir madaniy meros yodgorligi yoki obidaga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlar yoki ularga bo'layotgan xavfni sezganda, + (71) 200 0118 telefon raqamiga murojaat qilishlari mumkin bo'ladi.

O'ZING QAHRAMONSAN, O'ZING BAHODIR...

XOTIRA
(Otamning deyolmagani)



Rashid

XO'JAMOV

Toshkent

davlat o'zbek
tili va adabiyoti
universiteti
magistri

Sardor

SA'DULLAYEV



BURCH

Vatan, de onadan tug'ilganingdan,
Gavdang mayda bo'sa olma xavotir.
O'zgalardan kutma mardlik qilishni,
O'zing qahramonsan, o'zing bahodir.

Obro'yingdan ko'proq o'yila yurtingni,
Muqaddas nomiga yuqtirmaidan gard.
Jussang kichikligi ahamiyatsiz vaj,
Yuraging kichkina bo'lmasligi shart...

TALABA-YOSHLAR UCHUN

Innovatsion rivojlanish va-zirligi 2022-yilning 10-mayidan 10 iyuniga qadar faol talaba-yoshlar o'tasida "Wikipedia" portalining o'zbek tilidagi segmentiga yangi ma'lumotlar va maqolalarni joylashtirish hamda ularni ommalashtirish bo'yicha tanlov o'tkazmoqda.

Tanlov internet tarmog'ida o'zbek tilidagi ma'lumotlar hajmi va ko'lamini kengaytirish hamda Global Innovatsion indeksda respublikamiz o'nini mustahkmalash, shuningdek, yosh avlodning ijtimoiy faoliigi, internet savodxonligi va izlanuvchanligini rag'batlanirishga qaratilgan.

Tanlov yakunlariga ko'ra eng ko'p maqola joylashtirgan 10 na-far talaba-yoshlar va talabalari eng ko'p maqola joylashtirgan 3 ta olyi ta lim muassasasi mosib taqdirlanadi.

Ishtirokhilar tanlovda qatnashishdan avval qisqa onlays anketani to'ldirishi lozim.

Tanlov tartibi va shartlari bilan mininnovation.uz sayti orqali tanishishingiz mumkin.

Ta'bir bering tushimga...
Ta'bir bering tushimga –
Netsam ta'qib etmaydi?
Ko'zlarimdan bolamning
Kulgilari ketmaydi.
Meni hamma kutar-u
Bitta o'lim kutmaydi?
"Osmon to'la havolar –
faqat menga yetmaydi",
faqat menga yetmaydi.

Qibla tomon qayerda,
Yuzim burib qo'y, bolam!
Balki, ketgum sayrga
Yuz-ko'zimga to'y, bolam.
Faryod solma, kar dunyo –
Eshitmaydi, qo'y, bolam.
O'rtansam ham qabrimda
O'rtaydi bir o'y, bolam.
Mushtoqlikning yarasi
Mahshargacha bitmaydi.




Kelib-kelib turaman,
Ko'ngling bo'lsin xotirjam.
Ranjimayman boshimga
Har kun borolmasang ham.
Bu oxirgi siyovmas –
Bardam bo'linglar, bardam.
So'nggi bora suv tutqaz,
Sen bersang, obi zam-zam.
Endi sensiz suvg'a ham
Mening tishim o'tmaydi.

Zuvalam azaldan xom,
Ammo qismat rasida.
Hozir qishmi yo bahor
Deraza orqasida?
Kuz bo'lsa ham mayliga –
Havo bersa, bas edi.
Axir, men ham bitgandim
Xazonlarga qasida...
Tinch qo'yib qo'ymas bu dard,
Tinchitib ham qo'ymaydi.

Shamoldan uchqur edim –
Bir sabocha shashtim yo'q.
Shamolmidi yo bo'ron
Yuragimga soldi suq.
Dunya sadqa pallamda
Bo'layapman tasadduq.
Baqalar yerdan turib
Yulduzlarga urar do'q...
Yulduzlarga urar do'q –
Madorim manglaydag'i
Chivinga ham yetmaydi.

Oh, charchatdi hayotning
Bergan o'lik umidi.
Men-ku, mayli, sochimingga
Oqargani shumidi?
Tirliklida ming bora
O'dirgani kammidii?
So'raqlansam,
So'ralsam,
Darvoqe, men kim edim?
Dard degani birgina
O'lish bilan bitmaydi!

So'raqlansam,
So'ralsam,
Darvoqe, men kim edim?



Dominant





Kitobxonlar uchun
mutolaadan keyin
qizg'in muhokama,
yutuqli o'yin
va viktorinalar

ikar

Ilk katta adabiy rezonans!
Zabardast o'zbek mualliflaridan
sara asarlar, mutolaa uchun
ikki bosqichli mega-tanlov

factor focus

Zamonaviy kasblar va bilimlar
haqidagi eng mashhur
ilmiy-ommabop
adabiyotlardan turkum
tarjimalar



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlari ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlari Ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshuruk
Muhammadjonov

Musahihilar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va omrnayvi kommunikatsiyalar agentligida
2020-yil 1-fekabrdra № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tenidlari va sahifalardan
tarniyat matzili: 100-053, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Tel: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma
xonasida, A-3 formatida chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203.
Bahozi kelishilgan narxdan. Buyurtma G-555, Adaliy – 10586.
Bosishga topshirish vaqt – 21:00. Topsirildi – 21:00.

Saytimizega o'tish
uchun QR-kodini
telefoningiz orqali
skanner qiling.



1 2 3 4 5 6